

**MUALLIFLIK HUQUQINING XALQARO ME'YORIY-HUQUQIY
ASOSLARI**

Sharipova Nilufar Axmadjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

Email: nilufarsharipova6699@gmail.com

Annotatsiya- Mualliflik huquqining xalqaro darajada samarali himoyasini ta'minlash uchun uni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy asoslar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tezisdagi mualliflik huquqini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjatlar — Bern konvensiyasi, Mualliflik huquqi bo'yicha WIPO shartnomasi, TRIPS bitimi va boshqa normativ-huquqiy manbalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu hujjatlarning amaliyotdagi roli, ularni bajarish bo'yicha davlatlar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar va ularning milliy qonunchilikka ta'siri yoritiladi.

Аннотация- Обеспечение эффективной защиты авторских прав на международном уровне требует наличия нормативно-правовой базы, регулирующей данную сферу. В данной тезисной работе рассматриваются основные международные документы, регулирующие авторские права, такие как Бернская конвенция, Договор ВОИС по авторскому праву, Соглашение ТРИПС и другие правовые акты. Также анализируется роль этих документов на практике, обязательства государств по их выполнению и влияние на национальное законодательство.

Annotation- Ensuring effective protection of copyright at the international level requires a well-established legal framework. This thesis examines the main international legal instruments regulating copyright, such as the Berne Convention, the WIPO Copyright Treaty, the TRIPS Agreement, and other legal documents. It also analyzes the practical significance of these instruments, the obligations of member states to implement them, and their influence on national legislation.



Kalit soʻzlar: Mualliflik huquqi, xalqaro huquq, Bern konvensiyasi, TRIPS bitimi, WIPO (VOIS), intellektual mulk, xalqaro shartnomalar, huquqiy himoya, milliy qonunchilik, raqamli huquqlar.

Ключевые слова: Авторское право, международное правоб бернская конвенцияб соглашение ТРИПС, ВОИС (WIPO), интеллектуальная собственность, международные договоры, правовая защита, национальное законодательство, цифровые права.

Keywords: Copyright, international law, Berne Convention, TRIPS Agreement, WIPO, intellectual property, international treaties, legal protection, national legislation, digital rights

Mualliflik huquqi har bir shaxsning intellektual mulkini himoya qiluvchi muhim institutlardan biri hisoblanadi.¹ Biroq bugungi kunda texnologiyalar chegaralarni yoʻq qilayotgani sababli mualliflik huquqini faqat milliy qonunchilik bilan emas, balki xalqaro huquqiy asoslar orqali tartibga solish zarurati ortmoqda. Shu bois, xalqaro hujjatlarning roli beqiyosdir.

Birinchi va eng muhim xalqaro hujjat — bu 1886-yilda qabul qilingan Bern konvensiyasi boʻlib, u mualliflik huquqining minimal standartlarini belgilaydi. Konvensiyaga aʼzo davlatlar asarlarga avtomatik himoya berilishi, muallif nomi koʻrsatilishi va asarning daxlsizligi kabi qoidalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishi shart.

Ikkinchi muhim hujjat — bu TRIPS bitimi (1994), yaʼni Savdo sohasidagi intellektual mulk huquqlari boʻyicha kelishuv boʻlib, u mualliflik huquqining savdo bilan bogʻliq jihatlarini tartibga soladi. Ushbu bitim Jahon savdo tashkilotiga aʼzo barcha davlatlar uchun majburiydir va mualliflik huquqining buzilishi holatida xalqaro nizolarni hal qilish mexanizmini belgilaydi.

Uchinchi muhim asos — bu WIPO mualliflik huquqi toʻgʻrisidagi shartnomasi (1996) boʻlib, u raqamli texnologiyalar davrida mualliflik huquqini himoya qilish boʻyicha yangi standartlarni belgilaydi. Xususan, elektron mualliflik huquqlari,

¹ Intellektual mulk.Darslik.TDYU 2020



Internetda kontent tarqatish va raqamli himoya vositalari ushbu shartnoma orqali tartibga solinadi.

Shuningdek, Rim konvensiyasi, Parij konvensiyasi, Pekin shartnomasi kabi boshqa xalqaro hujjatlar ham intellektual mulkning turli shakllarini, shu jumladan mualliflik huquqiga yaqin bo'lgan huquqlarni (ijrochilar, efirga uzatuvchilar) himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro huquqiy asoslar mualliflik huquqini global miqyosda barqaror va birxil himoya qilishni ta'minlaydi. O'zbekiston kabi davlatlar uchun ushbu hujjatlar asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, xorijiy tajribani o'rganish va xalqaro majburiyatlarni bajarish zarurati mavjud.

Mualliflik huquqining xalqaro me'yoriy asoslarini rivojlantirishda Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti (WIPO), BMT va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) kabi tashkilotlar muhim o'rin tutadi. Ular mualliflik huquqi bo'yicha xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish, davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash va texnik yordam ko'rsatish orqali huquqiy bazani mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar rivoji xalqaro huquqni yangi muammolar bilan duch qoldirmoqda. Internetda mualliflik huquqlarini buzish, asarlarni noqonuniy ko'chirish va tarqatish holatlari ko'paymoqda. Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi ham xalqaro maydonda dolzarb muhokama qilinmoqda. Ayni paytda mavjud xalqaro hujjatlar ushbu holatlarni to'liq tartibga solishga yetarli emas.

Ayrim mamlakatlar xalqaro hujjatlarni qabul qilgan bo'lsa-da, ularning milliy qonunchilikdagi tatbiqi farq qiladi. Shu sababli huquqiy tartibotda harmonizatsiya (muvofiglashtirish) — ya'ni turli mamlakatlar qonunchiliklarining bir-biriga moslashtirilishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa mualliflarning huquqlarini transchegaraviy muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Xalqaro me'yoriy-huquqiy asoslar mualliflik huquqining barqaror himoyasini ta'minlovchi tayanchdir. Shunga qaramay, zamonaviy texnologik rivojlanish ushbu asoslarni doimiy yangilab borishni talab qilmoqda. Kelajakda xalqaro hamjamiyat



tomonidan yangi shartnomalar va mexanizmlarning ishlab chiqilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Intellektual mulk. Darslik. TDYU 2020
2. Filipova I.A. "Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish". - Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. – 179 bet.
3. "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun (20.07.2006)
4. <https://www.researchgate.net/publication/366474594>